

TITANIK KEMASI HAQIDAGI G‘AROYIBOTLAR**To‘xtavaliyeva Gulobar**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Sharq sivilizatsiyasi va tarix fakulteti
Moxt fors-ingliz guruhi talabasi

Barchamizni birdek qiziqishlarimizga sabab bo‘lgan Titanik kemasi haqida quyidagilarni bilib olamiz. Olimlar Titanik haqidagi asl haqiqatni qidirishmoqda. 1912-yil 14-aprel soat 23.40 da Britaniyaning Langer portida daxshatli voqea sodir bo‘ldi. Bu esa 3 soatdan keyin kemaning tamomila cho‘kishiga olib keldi. 15-aprel kuni soat 2.20 da o‘z davrining buyuk kemasini Atlantika okeanining muzli suvlari yutib yubordi. Titanik suv qariga cho‘kib o‘zi bilan 1 500 ming odamni yutib yubordi. Bortdagi yo‘lovchining 2\3 qismini olib ketdi. Ko‘plab o‘limlarga sabab bo‘lgan bu daxshatli ofatning aybdori aysberg edi. Ammo olimlarning yaqinda qilgan kashfiyotlari bu nazariyani rad etadi. Ushbu ma‘lumotlarda Titanikning halokatlatlari haqidagi butun haqiqatni bir asrdan ko‘proq vaqt davomida yashirin bo‘lib kelgan haqiqat. Uzunligi 268 m 23 sm, eni 28 m balandligi 53 m va yuk ko‘tarish quvvati 46 328t bo‘lgan Titanik suvga umuman cho‘kmaydigandek tuyilardi. Barcha pastki kayutalar va karidorlarni aylanib chiqish uchun bir necha km masofani bosib o‘tish kerak edi. Hatto kema ofitserlari ham bu ulkan inshoot ichida adashib qolmaslik uchun 2 haftadan ko‘proq vaqt talab qilingan. Titanikda 4 ta katta mo‘ri bo‘lib har birining og‘irligi 60 t ga yetgan va kemadan 25 m 12 sm balandlikka ko‘tarilgan. Har kuni mo‘rilardan chiqarilgan 100 ming tonna dud kema va uning yo‘lovchilariga noqulaylik tug‘dimasligi uchun mana shunday balandlik talab qilingan. Mo‘rilar yanada ajoyib va o‘ta ulug‘vor ko‘rinishi uchun ular 30 C burchak ostida o‘rnatilgan. Langyerning narxi ham hayratlanarli darajada bo‘lgan. Uni yaratish uchun 7 500 000 000 \$ sarflangan. Agar zamonaviy valyuta kurslari va inflatsiyani hisobga olsak 2016-yilda bunday loyiha 166 mln \$ ga tushardi. Shu bilan birga 1997-yilda dunyoga mashhur Titanik filmi suratga olish bundan ham qimmatroq 200 mln \$ ga tushgan. Harlend and Volf kemasozlik zavodi kemani qurish uchun 3 000 kishini yollagan. Haftada 6 kun ertalab soat 6.00 dan ishlagan shuncha ishchilarga qaramay vazifa shu qadar ulkan ediki, Titanik faqat 26 oydan keyin suvga tushirildi. Bu qiyin va o‘ta xavfli qurilish bo‘lgan tasavvur qiling-a 20 qavatli bino balandligida xavfsizlik kamarlarisiz biror vazifani bajaryapsiz. Ammo odamlarga oilasini boqish uchun pul kerak edi. Ishchilar haftasiga 2 funt olishardi. Bu juda katta mablag‘day ko‘rinmaydi. Lekin o‘sha davrlar uchun bu munosib ish haqqi bo‘lgan. Titanikni qurish jarayonida 8 kishi halok bo‘lgan. 246 kishi jarohat olgan. Ushbu ulkan mexanizmni yaratish uchun sarflangan barcha kuch va mablag‘larni hisobga olsak oddiy aysberg qurboni bo‘lganiga ishonish juda qiyin. Yangi ma‘lumotlar falokatning asl sababi muz emas balki olov ekanligini tasdiqlashga imkon beradi. Jurnalist Shenan Malo‘ni 30 yildan ortiq vaqtdan beri Titanikning cho‘kib ketishini o‘rganadi. Aynan u kema korpusida 9 metrlik ulkan qora dog‘ni topdi. Buni kema suzib ketishidan oldin olingan fotosuratlarni o‘rganayotganda payqadi. Gap shundaki Malo‘ni Lanyerni qurish uni birinchi va yagona sayohatiga tayyorlash vaqtida olingan ilgari noma‘lum bo‘lgan fotosuratlarni topishga muvaffaq bo‘lgan. Izlarga qaraganda olov juda yuqori haroratda 3 hafta davom etgan. Shuncha vaqt hech kim payqamagani ajablanarli. Metallurgiya sanoati mutaxasislari bunday ta’sir matalni osongina zaiflashtirishi va uning kuchini 75% ga kamaytirishi mumkinligini ta’kidlaydi. Shuning uchun aysberg osongina kemaning yon qoplamasini yorib yuborgan. Agar yong‘in bo‘lmaganda halokat hech qachon sodir bo‘lmasdi. Biroq aysbergning aynan matal zaiflashgan joyiga urilishi Titanik halokatiga sabab bo‘lgan

hayratlanarli va fojiali voqealar zanjiri halqalaridan biri xolos. Qurilish boshqaruvchilari yong'in haqida bilishgan va kema bu halokatli sayohatga chiqmasligi kerak edi. Ammo suzishni kechiktirish kema egalari uchun bankrotlik edi. Ammo bu paytda butun mamlakat bo'ylab konchilar ish tashlashdi va Titanikda ishlatilish uchun ozgina ko'mir qoldi. Biroq chiptalar allaqachon sotilgan biroq boshqa reslar bekor qilingan edi. Chunki hamma tarixdagi eng katta kemada birinchi bo'lib sayohat qilishni hohlar edi. Shu sababli Titanik egalari topilgan barcha va hatto boshqa kemalardan ham ko'mirni sotib olishgan. Sayohatni bekor qilish mumkin emas edi. Haqiqatni yashirish uchun shunday aylantirildiki, kuygan tomoni okeanga qarab turgan. Shuning uchun yo'lovchilar olov alomatlarini sezmagalar. Shunday qilib sayohat boshlandi. Titanikning ichi Londindagi Rits mehmonxonasi kabi bezatilgan edi. Asosiy zinopoya kemaning o'nta palubasidan 7 tasiga tushardi. U rasmlar, bronza haykalchalar va eman bilan qoplangan. Birinchi toifadagi yo'lovchilar uchun isiydigan baseyn, turk hammomlar, sport zali va go'zallik saloni mavjud edi. Ha, hatto sartoroshga qo'ng'iroq qilib kechki ovqatga tushishdan oldin, sochlarni turmaklatish imkoniyati bo'lgan. Lanyer bortida har kuni Atlantika Byuritelini deb ataladigan Gazeta nashr qilingan. Titanikda birinchi toifali yo'lovchilarning itlari uchun ham joy bor edi. Uy hayvonlari ovqatlantirilar, saylga olib chiqilar va hatto sayohat paytida qo'lga o'rgatilishi ham mumkin. Birinchi toifa uchun tushlik taxminan 5 soat davom etadigan ajoyib marosim bo'lgan. U 13 ta taomdan iborat bo'lib, ularning har biriga maxsus sharob qo'shimcha qilingan. Kemada 1 500 shisha vino, 2 mln shisha piva va 8 ming dona sigora bo'lgan. Ammo birgina binokel bo'lmagan. Nima uchun bu fakt e'tiborga loyiq, chunki binokel mavjudligi Titanikni halokatdan asrab qolishi mumkin edi. Bu halokatli voqealar zanjiridagi bir fojiali tasodif. O'sha paytlarda hech qanday sanarlar bo'lmagan. Shu sababli kema mashruti bo'ylab tahditlarni aniqlash uchun maxsus odamlar binokel orqali dengizni kuzatib borishgan. Ammo Titanikda barcha durbinlar maxsus shkafda qulflangan edi. Shkaf kalitiga ega bo'lgan yagona odam ikkinchi ofitser Devid Biler so'ngi daqiqada almashtirilgan. U kemani tark etishga shunchalik shoshganki kalitni o'z hamkasbiga berishni unitib qo'ygan. U 3 kundan keyin Lanyer allaqachon okeandaligida ma'lum bo'lgan. Ularning ekipaji aysbergni binokel bilan ancha oldin ko'rgan bo'lar va to'qnashuvni oldini olgan bo'lardi. Kema ruhsat etilgan tezlikdan oshib ketmaganligida ham fojia yuz bermasligi mumkin edi. Titanik rejadan qolayotgan bo'lib bu uning obro'siga jiddiy putur yetkazar edi. Shu sababdan u mexanizmlari uchun mo'ljallanganidan ancha yuqori tezlikda harakat qilgan. Yana bir daxshatli e'tiborsizlik qutqaruv qayiqdari bilan bog'liq bo'lgan. Titanik bortidagi barcha odamlarni joylashtirish uchun 60 ga yaqin qutqaruv qayiqdari kerak edi. Bosh konstruktor Aleksandr Karlayl kemani atiga 48 ta qayiq bilan jihozlashaga qaror qilgan. Ammo vaqt o'tgach yo'lovchi bilan ularning soni 20 tagacha qisqartirilgan. Bu estetik sabablarga ko'ra bo'lgan, chunki kema tashqarisidagi 48 ta qayiq bilan unchalik ulug'vor ko'rinmas edi. Mana shu 20 ta qayiq bortdagi barcha yo'lovchilarning 1\3 qismini sig'dira olgan. Bunga ishonish qiyin, ammo qutqaruv qayiqdarining bunday daxshatli yetishmasligi qoida buzilishi deb hisoblanmagan. Sababi o'sha davr qonunlariga ko'ra qayiqdar soni yo'lovchilar soniga emas, balki kemaning og'irligiga bog'liq bo'lgan. XX asrning boshlarida qayiqlardan foydalanish mashqlari okean Lanyerlarida keng tarqalgan amaliyot edi. Ularning yordami bilan ekipaj yo'lovchilarining yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulotda vaziyatlarga tayyorlagan. Biroq bunday tadbirlar Titanikda hech qachon o'tkazilmagan. Kapitan Edvert Jon Smit kema aysbergga urilgan kuni ertalabga rejalashtirilgan mashg'ulotni bekor qilgan. Bu qaror sababi, ayniqsa boshqa kemalar Titanikni hududda muz borligi haqida ogohlantirganini hisobga olsak, noaniqligicha qolgan. Ehtimol shuning uchun ekipajga qutqaruv qayiqdarini suvga tushirish uchun standart 10 daqiqa o'rniga yarim soatdan ko'proq vaqt kerak bo'lgan. Ba'zilar shuningdek, kapitan Smitni halokatning dastlabki daqiqalarida qutqaruv qayiqdari

kemani yarim bo'sh holda tark etganida ayblashadi. Ularning birinchilarida qariyb 65 ta o'ringa mo'ljallangan bo'lishiga qaramay atiga 27 ta yo'lovchi bo'lgan. Nima uchun qayiqlar to'ldirilmagan, gap shundaki, odamlar haqiqiy xavf ostida ekanliklarini sezmay evakuatsiyada sustkashlik qilishgan. 2012-yilda taqdiqochilar kapitan Smit o'zining birinchi imtihonidan o'ta olmaganligini aniqlashdi. Keyinchalik u bu imtihonni albatta topshirgan, ammo kim biladi, bali fojiada bu ham rol o'ynagandir. Titanik cho'kayotgan paytda ekipaj bir nechta yordam signalini yuborishga, muofaq bo'lgan. Ammo Kaliforniyalik deb nomlangan kema yaqin atrofada bo'la turib langerdan otilgan signallarga e'tibor qaratmagan. Keyinchalik bu fakt jamoatchilikka ma'lum bo'lgan, keyinchalik Kaliforniyalik kemasi kapitani ishdan bo'shatilgan. Biroq tarixchilarning so'ngi kashfiyotlari uning aybsizligini isbotladi. Hechdan ko'ra kech yaxshi. Titanikdan kelgan signalni hech kim ko'rmaganligini, yorug'lik sinishi hodisasi bilan izohlash mumkin. Sovuq havo qatlamlari, issiq havo qatlamlari ostida bo'lganida termal inversiya sodir bo'ladi. O'z navbatida u yorug'likni sinishiga olib keladi. Oddiy qilib aytganda saroblarga aylanadi. Shunga o'xshash saroblar o'sha kengliklarda suzib yurgan boshqa bir qancha kemalar tomonidan qayd etilgan. Tarixchi Tim Malten ham o'sha kechada yorug'likni sinishi kuzatuvchilarning aysbergni ko'rishiga to'sqinlik qilganiga amin. Kechirib bo'lmas beparvolik yoki fojiali tasodiflar zanjiri, yong'in yoki muz. Titanikning qulashi sabablari nima bo'lishidan qat'iy nazar u yuzlab odamlarning hayotiga zomin bo'lgan va hali ham taqdiqochilar va oddiy insonlar ong-u shurini hayajonga solmoqda. Yana boshqa faktlarga qaraganda Titanik kemada ketar ekan, kichik muz parchasi unga kelib urildi. Muhtaram insonlar xavotirga o'rin yo'q, Aysbergni zarbasi Titanikka deyarli xavf tug'dirolmaydi, deya hamma tinchlantirildi. 1909-yil insoniyat o'z tarixida ilk bor suv ustida olamshumul bo'lgan bir loyihani yaratdi. Titanik yo'lovchilar uchun mo'ljallangan bu kemani qurishda 100 lab kuchli muhandislar jalb qilindi. O'g'irligi 52 tonna, balandligi 19 metr, kengligi 28 metr, uzunligi 270 metr bo'lgan ulkan kema suv yuziga tushirildi. Bu bahaybat kema 2 440ta yo'lovchini olib Atlantika okeanida suzgancha yo'lga tushdi. Titanik haqiqattan mohirona bir ko'rinishda edi. Aqlga olganda bunday mustahkam kemaning halokatga uchrashi mumkin emas edi. Tungi soat 00.00 da Titanik suvda ketar ekan, kemaga taqqoslanganda juda ham kichik muz parchasi unga kelib urildi. "Janoblar aysberni zarbasi kemaga deyarli xavf tug'dirolmaydi",- deya hamma tinchlantirildi. Lekin tungi soat 2. 30 da kema qoq o'rtasidan bo'lingan holda ummon tubiga g'arq bo'ldi. 1 635 kishi Titanik bilan birga ummonga cho'kib ketdi. Titanikning halokatga uchrashiga aysberga urilishi sabab bo'lgani aytiladi. Xa bu ham bir sabab. Aslida falokatning eng katta sababi bu emas edi. Endi hayolan Titanikdan Nuh alayhi salom kemasiga o'taylik. Nuh alayhi salom va bir guruh mo'minlar allohning amri bilan ulkan kema yasadilar. Kema tayyor bo'lgach parvardigor amri bilan barcha jonzotlardan 1 juftdan qilib kemaga soldi. Nuh alayhi salom kemasi Titanikdan farqli o'laroq quruqlikda edi. Suv kelsa unga qanchalik darajada dosh bera olishi ham aniq emas edi. To'fon ko'tarilib, osmon-u yerning eshiklari ochildi. Dunyoni suv bosdi. Ishoning bu suv to'foni shu darajada daxshatli ediki, Titanikdek mustahkam kemalar ham bu to'fonga dosh berolmasdi. Kemadagi musulmonlar cho'kib ketamiz deb o'yladilar. Ammo unday bo'lmaydi. Buning sababi Nuh alayhi salomning mustahkam qurganida edimi? Xa bu ham bir sabab, lekin asl sababi boshqa edi. Nuh alayhi salom kemaga hamma chiqib bo'lgandan so'ng, kemaga chiqishdan avval shunday dedi: "Bu kemaning yurishi ham, turishi ham alloh aza va jallaning iznidadir. Xuddi shu kabi Titanikni qurgan muhandis ham kema yurishdan avval shunday bir gapni aytdi: "Bu shunday mustahkam bir kemaki, uni hatto xudo ham cho'ktirolmaydi" - dedi. Ikki og'iz so'z. Xa bor yo'g'i ikki o'g'iz so'z. Lekin bu so'zlar olamlar robbisiga bo'lgan katta bir jur'at va juda ham hunuk odobsizlik edi. Nuh alayhi salom qilgan duolari sababli aloh taolla o'z fazlini ko'rsatdi va kemadagilarga najot berdi. Kemadan tashqaridagi

hamma tirik jon suvga g'arq bo'ldi. Titanik esa hech qanday to'fonsiz, hech qanday sunamisiz, sokin turgan suv ustida, kichik bir muz parchasiga dosh bera olmaydi. Millionlab dollar pul qo'lingizda turgan bo'lsa ham, qovurg'alaringiz orasidagi bir parcha go'sht allohning iznida turadi, shuni unitmasligimiz kerak, haligacha Titanik falokati tarixchilar tomonidan o'rganilishi davom etmoqda. Hamma haligacha haqiqatni izlamoqda.